... ta ko‘p, ... ta kam, teng
tenglik
tengsizlik







**“=” belgili ifodalar tenglik deyiladi.**
**“>” yoki “<” belgili ifodalar tengsizliklar deyiladi.**

**1.** Sonlarni taqqoslang.

16 □ 18   90 □ 11   1 o‘nl. □ 3 o‘nl.
25 □ 13   92 □ 29   1 o‘nl. 2 birl. □ 6 birl.

**2.** Yashil qalam bilan tengliklarning, havorang qalam bilan tengsizliklarning tagiga chizing.

12 + 23 = 35   19 – 10 < 90   46 = 34 – 12
50 < 78 – 20   67 – 34 > 30

Belgilarni qo‘yishdagi xatolarni toping va ularni to‘g‘rilang.

**3.** Biz qanday o‘yin haqida gapirayapmiz? Qaysi jamoa g‘alaba qozondi? G‘oliblar nechta ko‘p gol urishdi?










Ushbu masala uchun tenglik va tengsizlik o‘ylab toping.

**4.** Jadvalga qarab tenglik va tengsizliklar yozing.

| Mashqlar | O‘g‘il bolalar | Qizlar |
|---|---|---|
| 1 minutda arqonchada sakrash | 40 | 50 |
| 12 qadam uzoqlikdan nishonga koptok uloqtirish | 3 | 3 |
| gavdani yerdan qo‘lda ko‘tarish | 17 | 11 |

a) Qizlar va o‘g‘il bolalarning sakrashlari sonini taqqoslang.

b) Koptokni kim ko‘proq nishonga tekkiza oladi: qizlarmi yoki o‘g‘il bolalarmi?

d) O‘g‘il bolalar qizlarga nisbatan necha marta ko‘p gavdalarini yerdan qo‘lda ko‘tarishlari kerak?

**5.** “>”, “<” yoki “=” belgilarini qo‘ying.




**6.** Darvozadan maktab eshigigacha Aziz 50 qadam, Sarvar esa 60 qadam bosib o‘tdi. Kimning qadami kengroq?

T.ME/TRM_METODIKA_UZ